



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 160 sahifa,
2-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений.....	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики.....	137
<i>Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения.....	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом.....	144
<i>Пирманова Бахора Эшмухаммадовна</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
<i>Olimova Sarvara Sobitxon qizi</i>	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
<i>M. B. Muxtorova</i>	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
<i>Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi</i>	

BO'LAJAK DEFEKTOLOGLARNI OILA BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

M. B. Muxtorova

Qo'qon davlat universiteti Pedagogika Fakulteti stajyor o'qituvchisi,
1-kurs doktoranti

Abstract: Mazkur maqolada bo'lajak defektologlarni alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar oilalari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari tahlil etiladi. Zamonaviy inklyuziv ta'lim sharoitida defektolog faoliyati nafaqat bola bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni tashkil etishni, balki ota-onalar bilan tizimli va maqsadli pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yishni ham nazarda tutadi. Maqolada oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning mazmuni, defektologning kasbiy kompetensiyalari, kommunikativ hamda psixologik tayyorgarlik masalalari ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, oila bilan ishlash jarayonining psixologik-pedagogik, sotsiologik va aksiologik asoslari yoritilib, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda integrativ yondashuvning ahamiyati ochib beriladi.

Key words: defektolog, oila bilan hamkorlik, inklyuziv ta'lim, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik, korreksion pedagogika, ota-ona mas'uliyati, kommunikativ tayyorgarlik, pedagogik integratsiya, aksiologik yondashuv.

Annotatsiya: The article examines the theoretical and methodological foundations for preparing future defectologists to establish effective cooperation with families of children with special educational needs. In the context of modern inclusive education, a defectologist's professional activity involves not only corrective and developmental work with the child but also the organization of systematic and purposeful pedagogical collaboration with parents. The study substantiates the content of social and pedagogical partnership between the family and the educational institution, as well as the professional, communicative, and psychological competencies required of specialists. The importance of an integrative approach in the training of future professionals is emphasized.

Kalit so'zlar: defectologist, family cooperation, inclusive education, professional competence, social and pedagogical partnership, corrective pedagogy, parental responsibility, communicative readiness, pedagogical integration, axiological approach.

Аннотация: В статье анализируются теоретико-методологические основы подготовки будущих дефектологов к организации эффективного взаимодействия с семьями детей с особыми образовательными потребностями. В условиях современного инклюзивного образования профессиональная деятельность дефектолога предполагает не только проведение коррекционно-развивающей работы с ребёнком, но и выстраивание системного и целенаправленного педагогического сотрудничества с родителями. Раскрываются содержание социально-педагогического взаимодействия семьи и образовательного учреждения, профессиональные компетенции дефектолога, а также вопросы коммуникативной и психологической готовности специалиста. Обосновывается значимость интегративного подхода в подготовке будущих специалистов.

Ключевые слова: дефектолог, взаимодействие с семьёй, инклюзивное образование, профессиональная компетенция, социально-педагогическое сотрудничество, коррекционная педагогика, родительская ответственность, коммуникативная готовность, педагогическая интеграция, аксиологический подход.

KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari insonparvarlik, inklyuzivlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga izchil asoslanmoqda. Global miqyosda alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning huquqlarini ta'minlash hamda ularni jamiyat hayotiga to'laqonli integratsiyalash masalasi dolzarb ijtimoiy-pedagogik yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro miqyosda qabul qilingan muhim hujjatlar – xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2006–yilda qabul qilingan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya – inklyuziv ta'limni inson huquqlarining ajralmas tarkibiy qismi sifatida belgilaydi. Mazkur hujjatda nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish jarayonida oilaning faol ishtiroki hamda davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlash muhim omil sifatida qayd etilgan.



O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 23-sentabr 2020-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli¹ Qonun hamda 2021–2025–yillarga mo'ljallangan inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar va ularning oilalarini pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish vazifasi aniq belgilab berilgan. Mazkur me'yoriy-huquqiy asoslar defektolog mutaxassislar faoliyatining mazmunini kengaytirib, ulardan nafaqat korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni samarali tashkil etishni, balki oila bilan tizimli va ilmiy asoslangan hamkorlikni yo'lga qo'yishni ham talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolaning rivojlanish samaradorligi ko'p jihatdan oila muhiti hamda ota-onaning pedagogik savodxonligiga bog'liq. Xususan, L. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola taraqqiyoti ijtimoiy muhit va "yaqin rivojlanish zonasi" doirasida shakllanadi. Mazkur jarayonda ota-ona va yaqinlar bolaning asosiy rivojlantiruvchi subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Maxsus pedagogika sohasida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar ham oila va mutaxassis o'rtasidagi samarali hamkorlik modeli mavjud bo'lgan sharoitda korreksion ishlar natijadorligi sezilarli darajada oshishini tasdiqlaydi.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bola dunyoga kelishi yoki rivojlanish xususiyatlarining aniqlanishi oila hayotida muayyan psixologik moslashuv jarayonini yuzaga keltiradi. Ota-onalarda turli hissiy kechinmalar kuzatilishi tabiiy hol bo'lib, bu jarayon ularning yangi vaziyatga moslashuvi bilan bog'liqdir. Mazkur holat pedagogik jarayonni yanada puxta tashkil etishni talab qiladi. Shu bois defektologning kasbiy tayyorgarligi nafaqat metodik bilimlarni, balki oila psixologiyasi, yuksak kommunikativ madaniyat hamda maslahat berish texnologiyalarini chuqur egallashni ham nazarda tutadi.

Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvga ko'ra, bo'lajak defektolog kasbiy faoliyatida ko'p funksiyali rolni bajaradi: u pedagog, maslahatchi, mediator, ijtimoiy hamkor hamda psixologik qo'llab-quvvatlovchi sifatida faoliyat yuritadi. Shu munosabat bilan oliy ta'lim tizimida defektologlarni tayyorlash jarayoni integrativ xarakter kasb etib, nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va shaxsiy-kasbiy sifatlarni uyg'un shakllantirishga yo'naltirilishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tayyorgarlik tizimli, aksiologik va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgandagina inklyuziv ta'limning barqaror rivojlanishi hamda alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi ta'minlanadi.

Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlash masalasi, avvalo, shaxs rivojlanishining ijtimoiy-madaniy nazariyalariga tayanadi. Bu borada Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Olimning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi nazariyasiga ko'ra, bolaning kognitiv va nutqiy rivojlanishi ijtimoiy muloqot hamda kattalar bilan hamkorlik jarayonida shakllanadi. Demak, oila bolaning birlamchi va muhim rivojlantiruvchi muhiti hisoblanadi.

Vigotskiy maktabi vakillari A. Luriya va A. Leontyev faoliyat nazariyasini rivojlantirib, bola taraqqiyotida ijtimoiy faoliyat va o'zaro ta'sirning hal qiluvchi rolini ilmiy asoslab berganlar. Mazkur yondashuv defektolog faoliyatining oila bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Oila bilan ishlash nazariyasi tizimli yondashuv doirasida ham o'rganiladi. Tizimlar nazariyasi asoschisi L. F. Bertalanfi jamiyat va inson faoliyatini o'zaro bog'langan tizim sifatida talqin etgan. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, bola rivojlanishi oila tizimi bilan uzviy aloqada qaraladi.

Maxsus pedagogika sohasida R. Boskis eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishida oilaning rolini tadqiq etib, ota-onalarning pedagogik savodxonligi korreksion jarayon samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. N. Malafeyev esa inklyuziv ta'limni rivojlantirish jarayonida oila va ta'lim muassasasi hamkorligini takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan hamda maxsus pedagog tayyorgarligida ijtimoiy hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirish muhim omil ekanligini ko'rsatgan.

Oila psixologiyasi yo'nalishida V. Satir oila tizimidagi emotsional muvozanat va samarali kommunikatsiyaning shaxs rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ilmiy asoslab bergan. Maxsus pedagogika kontekstida esa L. Shipitsina alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar oilalarini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash modelini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotlari ota-onalar bilan maslahat va trening mashg'ulotlarini tashkil etish korreksion ishlar samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/-5013007>.

Zamonaviy pedagogik ta'limda kompetensiyaviy yondashuv yetakchi metodologik yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Bu borada Y. Goncharova defektolog tayyorgarligida kommunikativ va konsultativ kompetensiyalarni shakllantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. O'zbek maxsus pedagogika olimlari L. Mo'minova, U. Fayziyeva hamda M. Ayupova tadqiqotlarida ota-onalarni pedagogik jarayonga faol jalb etish va ularning metodik savodxonligini oshirish masalalari atroflicha yoritilgan. Ular tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar oilaviy hamkorlikni tizimli tashkil etish imkonini beradi.

Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari xalqaro hujjatlarda ham o'z ifodasini topgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada oila inklyuziv jarayonning asosiy ishtirokchisi sifatida e'tirof etilgan. UNESCO tavsiyalarida esa ota-onalar bilan sheriklik modeli inklyuziv maktabning ajralmas komponenti sifatida qayd etilgan. Bu holat bo'lajak defektologlarni tayyorlash jarayonida ilg'or xalqaro tajribani o'rganish va milliy ta'lim tizimiga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi, tizimli yondashuv hamda kompetensiyaviy paradigma metodologik asos sifatida qabul qilindi. Ilmiy manbalarni qiyosiy-tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, kontent-tahlil va ilmiy umumlashtirish metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Shuningdek, defektologlarni tayyorlash jarayoniga oid o'quv dasturlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar analitik jihatdan chuqur o'rganildi.

Tadqiqotning obyekti – bo'lajak defektologlarni kasbiy tayyorlash jarayoni, predmeti esa ularning oila bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishning mazmuni va mexanizmlaridan iborat. Olingan natijalar tizimli tahlil asosida umumlashtirilib, nazariy xulosalar ko'rinishida tartibga keltirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlash zamonaviy maxsus pedagogika tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning samarali rivojlanishi nafaqat korreksion-rivojlantiruvchi metodikalarni qo'llash, balki oila bilan tizimli va ilmiy asoslangan hamkorlikni yo'lga qo'yish bilan ham bevosita bog'liqdir. Nazariy tahlillar asosida aniqlanishicha, oila bolaning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti hisoblanib, uning psixik, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida muhim o'rin egallaydi. Ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi, tizimli yondashuv, oila psixologiyasi konsepsiyalari hamda kompetensiyaviy yondashuv defektologlarning kasbiy tayyorgarligini integrativ model asosida tashkil etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillar bo'lajak defektologlarning oila bilan ishlashga tayyorgarligi ko'p komponentli tuzilishga ega ekanligini ko'rsatdi; mazkur tuzilma nazariy, amaliy, kommunikativ va aksiologik komponentlarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi. Oila bilan samarali pedagogik hamkorlikni tashkil etish defektologdan yuqori darajadagi kommunikativ madaniyat, empatiya, maslahat berish ko'nikmalari hamda konfliktologik savodxonlikni talab etadi. Shu bilan birga, defektologlarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlarni egallash bilan bir qatorda pedagogik amaliyot, case-study, rolli o'yinlar, modellashtirish va refleksiv tahlil metodlari orqali real kasbiy vaziyatlarga moslashuvchanlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oila bilan hamkorlik modeli o'zaro ishonch, sheriklik, birgalikda qaror qabul qilish va monitoring tamoyillari asosida tashkil etilgandagina yuqori samaradorlikka erishiladi. Shuningdek, maxsus pedagog kadrlar tayyorlash tizimida oila bilan ishlash kompetensiyalarini alohida modul sifatida joriy etish muhim pedagogik shartlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Defektologning kasbiy tayyorgarligi nafaqat metodik bilimlarga, balki insonparvarlik, tolerantlik, kasbiy etikaga sodiqlik hamda yuksak ijtimoiy mas'uliyat kabi shaxsiy sifatlar bilan uyg'unlashgan holda shakllandagina yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Oila bilan izchil va samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning natijadorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari tizimli, ijtimoiy-madaniy va kompetensiyaviy yondashuvlar integratsiyasi negizida qurilishi zarur.

Mazkur integrativ yondashuv inklyuziv ta'limning barqaror rivojlanishini ta'minlashga, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga hamda oila va ta'lim muassasasi o'rtasida samarali, o'zaro ishonchga asoslangan pedagogik hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 2016. – 352 с.
2. Лурия А. Р. Высшие корковые функции человека. – Москва: Академический проект, 2000. – 512 с.
3. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975. – 304 с.
4. Бертаданфи Л. фон. Общая теория систем: критический обзор. – Москва: Прогресс, 1969. – 250 с.
5. Боскис Р. М. Психология глухого ребёнка. – Москва: Просвещение, 1988. – 256 с.
6. Малофеев Н. Н. Специальное образование в России и за рубежом. – Москва: Педагогика, 2005. – 320 с.
7. Шипицына Л. М. Психолого-педагогическое сопровождение детей с ограниченными возможностями здоровья. – Санкт-Петербург: Речь, 2010. – 240 с.
8. Fayziyeva U. Inklyuziv ta'lim nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 220 b.
9. Ayupova M. Y. Logopediya. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2018. – 250 b.
10. O'zbekiston Respublikasining 23-sentabr 2020-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonun. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2020. <https://lex.uz/docs/-5044711>.
12. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. – New York: UN, 2006.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.